

*O‘roqova Nafosat Yoriyevna*  
*Buxoro davlat universiteti dotsenti,*  
*Filologiya fanlari o‘yicha falsafa*  
*doktori(PhD)*

[n.y.uroqova@buxdu.uz](mailto:n.y.uroqova@buxdu.uz)

*Normuratova Nigora Rustam qizi,*  
*O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası*  
*tayanch doktoranti*

[nigoraaaab@gmail.com](mailto:nigoraaaab@gmail.com)

## SADRIDDIN AYNIY USLUBIGA DOIR CHIZGILAR

**Annotatsiya:** Maqolada XX asr o‘zbek va tojik adabiyotining zabardast vakillaridan biri Sadridдин Ayniyning nasrdagi ijodi tahlil qilingan. Adibning epik asarlarida real hayot tasviri keng ko‘lamda ifodalanganligi, unda ijodkor uslubi va individualligining o‘rni masalasi yoritilgan. Shuningdek, maqolaning asosiy qismida nosirning yirik nasriy asarlaridagi obrazlar tizimi ham ilmiy-nazariy jihatdan tahlilga tortilgan. Ustod Ayniyning nasriy asarlari orasida “Esdaliklar” alohida o‘rin egallashi dalillangan. Asarda personajlar xarakteri oddiy, barcha uchun tushunarli va mavhum tushunchalardan xoli tasvirlanganligi, uning badiiyati borasida ham ayrim mulohazalar bildirilgan. Ushbu tarixiy-memuar asarda o‘sha zamonning kasblari mufassal yoritilganligiga aloqador fikrlar asoslangan.

**Kalit so‘zlar:** Sadridдин Ayniy, “Esdaliklar”, memuar asar, yozuvchi uslubi, real hayot tasviri, Buxoro tarixi, “Qullar”, “Doxunda”.

**Аннотация:** В статье анализируется прозаическое творчество Садриддина Айни, одного из ведущих представителей узбекской и таджикской литературы XX века. В эпических произведениях писателя широко выражен образ реальной жизни, освещен вопрос о роли стиля и индивидуальности творца. Также в основной части статьи с научной и теоретической точки зрения анализируется система образов в основных прозаических произведениях писателя. Доказано, что «Воспоминания» занимают особое место среди прозаических произведений Устада Айни. В произведении характер героев описан просто, понятно для каждого и свободен от отвлеченных понятий, а также сделаны некоторые замечания по поводу его художественности. Историко-мемуарный труд основан на подробном освещении занятий того времени.

**Ключевые слова:** Садриддин Айни, «Воспоминания», мемуары, писательский стиль, образ жизни, история Бухары, “Рабы”, “Дохунда”.

**Abstract:** The article analyzes the prose work of Sadriiddin Aini, one of the leading representatives of Uzbek and Tajik literature of the twentieth century. In the epic works of the writer, the image of real life is widely expressed, the question of the role of style and individuality of the creator is illuminated. Also in the main part of the article, the system of images in the main prose works of the writer is analyzed from a scientific and theoretical point of view. It has been proven that “Memoirs” occupy a special place among the prose works of Ustad Aini. In the work, the character of the heroes is described simply, understandably for everyone and free from abstract concepts, and some comments are made about its artistry. The historical and memoir work is based on detailed coverage of the activities of that time.

**Keywords:** Sadriiddin Aini, «Memories», memoir, writer's style, real life image, history of Bukhara, “Slaves”, “Dokhunda”.

**Kirish.** Badiiy adabiyotda ijodkor uslubi va individualligining qirralari, asosan, jamiyat hayotini tasvirlashda namoyon bo‘ladi. Adib badiiy ijod namunalarini yaratar ekan, unga o‘z estetik tafakkuridan kelib chiqqan holda yondashadi. Agar ijodkor shaxs o‘z jamiyati muammolarini, vaziyatini ko‘ra olmasa, unday ijod namunasi adabiyotning umrboqiylik talablariga javob bera olmaydi.

Barcha nasriy asarlarda ham Sadriiddin Ayniy jamiyat hayotini tasvirlashda o‘z original uslubini yaratdi. Biz uning uslubini reallikda ko‘ramiz.

“Ayniyning ilmiy-ijodiy merosini adabiyot, tarix, pedagogika yoki adabiyotshunoslik nuqtai nazaridangina emas, balki tilshunoslik jabhasidan ham baholash lozim bo‘ladi. Ayniyning ulug‘ligi ham, tengsizligi ham ana shunda – u boshqa bironlar uddalay olishga aql bovar qilmaydigan ishlarni qoyillatib bajarishga qodir bilim va salohiyat sohibi edi. Ayniy ilm va ijod uchun tug‘ilganligini bilar, shuning uchun butun kuch-quvvati, qobiliyatini ilm-fan, adabiyot ravnaqiga bag‘ishlagandi” [1].

**Asosiy qism.** Sadriiddin Saidmurodzoda Ayniy zullisonayn alloma bo‘lib, adabiyotshunos, nosir, shoir, pedagog, tarixchi, shuningdek, tilshunoslik va adabiyotshunoslik sohasida juda faol publitsist sifatida mashhur. Uning dunyo tan olgan yirik nasriy asarlari quyidagilar:

“Buxoro jallodlari” (qissa) 1922-yil

“Odina” (qissa) 1924-yil

“Qulbobo yoki ikki ozod” (qissa) 1928-yil

“Doxunda”(roman) 1930-yil

“Qullar” (romani) 1934-yil.

“Eski maktab” (qissa) 1935-yil

“Sudxo‘rning o‘limi” (qissa) 1939-yil

“Yetim” (qissa) 1940-yil

“Esdaliklar”(memuar asari) 1949-1954-yillar

Ustodning nasriy asarlari orasida “Esdaliklar” alohida o‘rin egallaydi. Asarda personajlar xarakteri oddiy, barcha uchun tushunarli va mavhum tushunchalardan xoli tasvirlangan. Esdalik yozish yozuvchidan katta mahorat va qobiliyatni talab qiladi. Sadridin Ayniy ushbu asari to‘g‘risida shunday deydi: “Ma’lumki, har bir ishda odamning tajribasi umrining so‘ngida takomillashadi hamda voyaga yetadi. Umrin yetmishdan oshib, a’zolarim bo‘shashib, ish qobiliyatim kamaya borganidan, o‘zimcha muhim ko‘ringan bu ishning – esdalik yozish ishining vaqti kelgan, deb o‘yladim va fursatni g‘animat bilib, bu ishni bajarishga kirishdim” [5,7]. Pirovardida adib yetmish yillik xotiralarni jonlantirib, kelajak avlodga nodir meros qoldiradi.

Asar ibtidosi to‘y tasviri bilan boshlanadi. Xatna to‘yi – millatimizning milliy an‘anasi, islom dinining qadrli odati. Asar davomida yozuvchining o‘ziga xos uslubini ko‘rishimiz mumkin. Bu memuar asarda boshqa esdaliklardan farqli ravishda yozuvchining oldingi asarlariga ishora ham mavjud. Masalan: “Agar boylar paxtakashlarning mehnatlariga yarasha haq bersalar, paxtakashlik yomon kasb emas edi. Ammo ochko‘z boylar paxtakashlarga beradigan arzimasi ish haqini ham, turli firib-nayranglar chiqarib yanada ozaytirardilar (men Mahallayi Bolodagi soliq yig‘ish tartibini “Qullar” romanining ikkinchi qismida va paxtakashlar bilan qal’achi boylar munosabatini mazkur romanning birinchi qismida tasvir qilganman.)” [5,8]. Bunday ishora shuni tasdiqlaydiki, yozuvchining asar qahramonlari real hayotda bo‘lgan shaxslardan tashkil topgan. Umuman olganda, Ayniy asarlarida yozuvchining qalb xotiralari askarlardek bo‘lib safga tiziladi va o‘tmishning o‘chmas izlarini gavdalantiradi.

Muallif asarlarining g‘oyaviy tuzilishida ham o‘xshashlik mavjud. Uning “Odina” qissasida chin yetim bo‘lgan bolaning Arbob Kamol tomonidan nohaqlikka uchrashi tasvirlangan bo‘lsa, “Esdaliklar” tarkibida esa “Dono malay va Firibgar boy” hikoyasi uchraydi. To‘taposhshaning tilidan aytilgan bu hikoyada ham Odina singari bir yetimning taqdiri bayon qilingan. Faqatgina “Odina” qissasidan farqi bu hikoyada malayning donoligi sabab baxtga erishishi yozilgan. Ayniyning bu mavzularda ijod qilishi davrning talabi edi. Bu hikoya asarda bejiz keltirilmagan. “Esdaliklar” bizga jamiyatdagi muhitni ayblashga emas, balki o‘quvchini shu davrning murakkabliklarini anglashga chorlaydi. Asarda nohaqlik, ijtimoiy tabaqalaninish, qashshoqlik, jabr-zulm – o‘sha davr hayoti boricha aks etgan. Unda Lutfillo Go‘ppol, qozi Abdulvohid, Xabiba, Mahmud qori, Ergash, Ustaxo‘ja kabi turli xarakterga ega bo‘lgan personajlarni ko‘ramiz. Bu kimsalar zamonaning turli tabaqa vakillari edi. Yozuvchining yutug‘i ham aynan shunda. Keng qamrovlilik, personajlarning ko‘pligi, voqealar tizimining rang-barangligi – bu ijodkor mahoratining g‘oyat kuchliligidan darak beradi.

“Esdaliklar”da peyzaj tasviri alohida e’tiborga molik. S.Ayniy Buxoro shahrini o’quvchiga ilk bora tasvirlaganda shunday yozadi: “Shahar ichi qop-qorong’u edi, shahar darvozaboni oldida paxta pilik va zig’ir moyi bilan yonadigan bir pilso’z – jinchiroq xira yoruq ham, undan nariroqda u ham yo’q edi. Buxoro hovlilarining ko’cha tomonida deraza va darchalari bo’lmaganidan ko’chaga yorug’ tushmasdi. Ikki-uch qavat binolar bilan ikki tomoni o’ralgan torgina ko’chalar, odamga go’r ichini eslatardi [5,118].

Ayniy shahar haqida so’zlar ekan, uni zulmatga o’xshatadi. U aslida bu so’zni shaharga nisbatan emas, balki butun buxoroliklarni zulmat ichida yashamoqda, demoqchi bo’ladi. Torlikda, siqqlikda umrguzaronlik qilayotgan xalqni ham shahar bilan birga tasvirlaydi. Aynan ana shu tasvirning o’zi ham bizga o’sha davrda shahar uylarining qanday qurilishi, ko’chalarning tor va qorong’u bo’lishi haqida xabar bermoqda. Arxitektura masalasi ham bevosita muallif e’tiboriga tushmoqda. U Buxoro madrasalarini pishiq g’ishtdan, ikki qavatli, keng sahnli, baland va mustahkam devorga ega, devorlari rang-barang koshinlar bilan bezatilganligini asarning bir necha o’rinlarida aytib o’tadi. Lekin, shunday bo’lsa-da, adib ta’lim bergan shogirdlarining hujralari sovuq, tor, qorong’u bo’lgan. Aynan ana shu hujralarni xususiy mulkka aylantirish masalasi ham asarda tilga olingan.

Ushbu tarixiy-memuar asarda o’sha zamonning kasblari ham mufassal yoritilgan. Tegirmonchilik, duradgorlik, paxtakashlik, qozikalonlik, mardikorlik, ustachilik, chorvachilik, domlachilik, sarbozlik kabi ijtimoiy qatlamning turli tabaqalari hayoti, turmush tarzi, orzu-armonlari o’z aksini topgan. Sarbozlar haqida to’xtalib, ularni muntazam askarlar deb ataydi. Ular “Kavkaz otliqlari” deb atalishi va ular boshqa sarbozlardan kiyinishi, oylik maoshi va hayot tarzining yuqoriligi bilan farq qilishini aytadi. O’sha davrda bu guruh sarbozlari amir xavfsizligi uchun mas’ul kishilar bo’lgan. Buxoroda harbiy holat uncha yaxshi bo’lmasa ham, amirning xos askarlari va sarbozlari oliy darajadagi tayyorgarlikka ega edi. Amirlikda harbiy salohiyat shulardan iborat bo’lib, tabiiy holki, bunday tayyorgarlik bilan ham butun boshli Chor Rossiyasiga qarshi kurashishning imkoni topilmasdi.

Sadriddin Ayniyning “Esdaliklar”i shu vaqtgacha yaratilgan ushbu janrdagi asarlardan qahramonlarning va butun boshli hayotning tabiiy va jonli tasviri bilan ajralib turadi. Binobarin, bu asarga berilgan ta’riflarning eng chiroylisi va munosibi shunday: “Zero, “Esdaliklar” o’zbek nasri tarixida “Boburnoma”dan keyingi tarixiy-memuar asar sifatida alohida o’rin tutadi” [3,145-146].

Darhaqiqat XIX asr adabiy, ijtimoiy, iqtisodiy va, albatta, ta’lim sohalariga daxldor mavzular asarda keng qamrovli o’z aksini topgan.

Adibning birinchi yirik romani – “Doxunda”. “S.Ayniy dastlabki asarlarida (to “Doxunda” romani yozilguncha), – deydi sharqshunos I.S.Braginskiy, –

sotsialistik realizm metodi prinsiplari bilan ham tanish emasdi. Ammo o‘sha asarlarida ham u partiya ko‘rsatmalarini alohida-alohida yo‘sinda badiiy asar shaklida ifodalab berishga harakat qilardi”. Vaholanki, Ayniy bungacha Buxoroning Mirarab, Olimjon, Badalbek, Hoji Zohid, Ko‘kaldosh kabi madrasalarida qariyb 23 yil tahsil olib, chuqur ilm egallagan, badiiy ijod sirlaridan yaxshi xabardor, Sharq mumtoz adabiyoti, Navoiy va Bedil ijodiyotiga chin muhib o‘laroq shakllangan edi” [2].

Braganiskiy bu ta’rif bilan Ayniyga yuksak baho bergan. Chunki S.Ayniy realizmning qonun-qoidalari bilan tanishmay turib, realizmning dastlabki namunalaridan bo‘lgan romanlarini yozdi. S.Ayniy romanchilikda Abdulla Qodiriyning ustoz deb bilgan va yozgan romanini unga ko‘rsatgani bizga ma’lum. Agar Qodiriyning “O‘tkan kunlar” va “ Mehrobdan chayon” romani bilan “Doxunda” romanini tahlil qiladigan bo‘lsak, ulardagi kesishmalarni ko‘rishimiz mumkin. A.Qodiriyning o‘g‘li Habibulla Qodiriy otasi Ayniy bilan o‘zaro maslakdosh ekanligini esdaliklarida yozgan. Qodiriy “Doxunda”ning ilk o‘quvchisi sifatida unga o‘z maslahatlarini bergan bo‘lishi mumkin. Ushbu asarda bir yigitning jamiyat hayotiga befarq emasligi tasvirlangan. Qodiriy romanlaridagi Otabek va Anvar ham o‘z zamonasining ijtimoiy muammolariga loqayd bo‘lmagan, o‘z zamonasining old yigitlaridan qilib tasvirlangan. Bu xususiyatlarni Yodgor timsolida ham ko‘rishimiz mumkin. Otabek, Anvar, Yodgor obrazlari romanlar davomida komil shaxsdek qiyofa kasb etadi. Asarning tuzilishida ham o‘xshashlik mavjud. Qodiriy romanlari kabi “Doxunda”da ham har bir hikoya nomlangan. Bu an’anani ham Ayniy zamondoshidan namuna sifatida olgan bo‘lsa ajab emas. Yozuvchilarning ijodiy hamkorligi, adabiy ta’sir, ijodiy oziqlanishi va an’analar ikki ijodkor o‘rtasida mushtaraklikni keltirib chiqargan. Ayniy yaratgan Yodgor obrazi adibning boshqa obrozlaridan farq qiladi. Uni Odina bilan solishtiradigan bo‘lsak, ikkisi o‘rtasida jiddiy tafovutlarni kuzatamiz. Chunki yuqorida aytganimzdek, Yodgor obrazi isyonkor obraz. U oqimga qarshi harakatlana oladi, jamiyat an’analariga qarshi chiqa oladi. Uning qaynab turgan shijoatini adib quyidagicha tasvirlaydi: “Biz ilonday ko‘zga ko‘rinarli bo‘lgan bosmachilikni tugatdik, lekin bosmachilarni maydonga keltirgan sinf hali tirik, u harakatda. Dushmanlar bizga ochiqdan ochiq tegmasalar ham, buyra ostidagi chayondek, payt topganda chaqadilar, zaharlaydilar, olg‘a borishga to‘sqinlik qiladilar”. Agar e’tibor qaratadigan bo‘lsak ushbu asarda ham “Mehrobdan chayon” singari razil kimsalar chayonga o‘xshatilmoqda.

Adibni nosir sifatida mahoratini yanada namoyon qilgan keyingi yirik asari bu “Qullar” romanidir. Bu roman XIX asrning 30-yillaridan XX-asrning 30-yillarigacha bo‘lgan O‘rta Osiyo manzaralarini tasvirlaydi. Professor G‘ayrat Murodov o‘zlarining ilmiy ishlarida “Qullar” romaniga to‘xtalib o‘tib, qimmatli ma’lumotlarni berganlar. Biz ham bu nodir ma’lumotlarni ushbu o‘rinda taqdim

qilishni maqsadga muvofiq topdik: “S.Ayniyning navbatdagi yirik epik asari – “Qullar” (1933) romanida moziy voqealarining haqqoniy manzaralari tasvirini ham, davr va insonga sinfiy-differensial munosabatni ham ko‘rish mumkin. “Qullar” – o‘z badiiy matniga ulkan tarixiy hodisalarni, individual xarakter va tillarni jo qilgan, sujet va kompozitsiya jihatdan puxta ishlangan badiiy asar. “Qullar” xronotopi – keng va serqirra. Unda bir asrdan ko‘proq tarixiy vaqt, ulkan badiiy hudud (Afg‘oniston, Turkmaniston, O‘zbekiston, Tojikiston) o‘z ifodasini topgan. “Qullar” romanining qahramoni – xalq. “O‘tkan kunlar” romanidagiday “Qullar”da ham xalq badiiy matnda faol ishtirok etadi. Asarda xalqning tarixiy jarayonidagi o‘rni, ma’naviy-psixologik tadriji badiiy tadqiq etilgan” [6, 86].

Yuqorida keltirilgan ta’riflar romanga berilgan chin baho. Darhaqiqat, “Qullar” romani personajlarning ko‘pligi, xronotopning keng ko‘lamli ekanligi bilan ajralib turadi. Ayniy o‘z asarlarida, ayniqsa, “Qullar” romanlarida qahramon shaxsiga ko‘proq e’tibor qaratgani romandagi bosh qahramonlarning alohida ajralib turishiga sabab bo‘lgan. Buni Rahimdod, Ergash va Safarg‘ulomlar, shuningdek, Jalilxali va Abdurahmonlar, Ulmurod, Ro‘zi va boshqalarning chehralarida ham ko‘ramiz. Bu shaxslarning aksariyati Ayniy tomonidan mohirona tasvirlangan. “Qullar” romanida yozuvchi roman tarkibida ularni o‘z nutqi bilan shunday ta’riflaydi: “To‘g‘risini aytsam, bizning qishloq, deyarli joyimiz, yovon otarlik yerimiz ham yo‘q. Biz eski qullarning avlodimiz. Qorayog‘och qishlog‘ining bir chekkasidagi qum bosgan bir yerda, “G‘ulomon” ko‘chasida, otabobimiz ozod bo‘lgan chog‘larida o‘zlari uchun yasagan chayladay uylarda tirikchilik qilamiz. Biz boylarda chorakorlik, mardikorlik, chorvadorlik, cho‘ponlik qilib kun kechiramiz, ba’zilarimiz cho‘ldan yantoq, shuvoq tashiymiz, shu bilan o‘lmagudek ovqat qilamiz” [4,112]. Ushbu satrlar orqali nosir bu insonlarning kim ekanligi, ularning yashash tarzini ko‘rsatadi. Ayniy deyarli barcha asarlarida qullikni, inson mehnatidan nohaq foydalanishni qoralaydi.

**Xulosa.** Asrimiz boshlarida yuz bergan va berayotgan o‘zgarishlar natijasida dunyo va inson munosabatarini chuqurroq idrok etish, xalqimizning milliy tafakkuri, betakror an’ana va qarashlarni mujassam etgan o‘zbek nasriga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sadridin Ayniy shunchaki romanlar, qissalar yozmadi, u tarixni ochiq oydinlik bilan badiiy sayqallab yozdi. Adibning nasriy asarlari qahramonlarning va butun boshli hayotning tabiiy hamda jonli tasviri bilan ajralib turadi. Aytish joizki, Sadridin Ayniyning boy ma’naviy merosi asrlar davomida o‘zbek adabiyoti bo‘stonini boyitib boraveradi.

#### ADABIYOTLAR:

1. Ibrohim Haqqul. Bedilshunos Ayniy//.www.kh.davron.uz.
2. Ibrohim Haqqul.Ulug‘larni ulug‘lar tiriltirgay//. [www.kh.davron.uz](http://www.kh.davron.uz)

3. Sharipova Laylo. “Esdaliklar” da Buxoro va Buxoroliklar tasviri. “Sadriddin Ayniy va o‘zbek nasri taraqqiyoti” nomli respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. 26-27-aprel. – Buxoro, 2018.
4. Sadriddin Ayniy. Asarlar. III tom. – T.: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
5. Sadriddin Ayniy. Asarlar. V tom. – T.: “Toshkent” badiiy adabiyot nashriyoti, 1965.
6. Муродов Ғайрат. Тарихий роман: муштараклик ва ўзига хосликлар уйғунлиги муаммолари. Филология фанлари бўйича докторлик (DSc) диссертацияси. – Т.: 2018.
7. Yoriyevna U. N. THE ORIGINALITY AND GENESIS OF ANIMAL SYMBOLISM IN POETRY //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2023. – Т. 18. – С. 20-23.
8. Uroкова N. MASNAVI GENRE IN UZBEK CLASSICAL POETRY //Академические исследования в современной науке. – 2022. – Т. 1. – №. 14. – С. 137-140.
9. Uroкова N. GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 8. – С. 57-59.
10. Yoriyevna U. N. RELATIONSHIPS BETWEEN HUMANS AND ANIMALS //Confrencea. – 2023. – Т. 8. – №. 1. – С. 123-126.